

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

FUQAROLAR YIG‘INI RAISI (OQSOQOLI) SAYLOVI TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2018 yil 21 sentyabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2018 yil 27 sentyabrda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi, ovullardagi mahalla fuqarolar yig‘ini (bundan buyon matnda fuqarolar yig‘ini deb yuritiladi) raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

3-modda. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovida ishtirok etish huquqi

Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi) ishtirok etishi ixtiyoriy va erkindir. Fuqarolarni saylovda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka majbur qilish maqsadida ularga ta’sir ko‘rsatishga, shuningdek ularning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishiga ta’sir ko‘rsatishga hech kim haqli emas.

Fuqarolar yig‘ini raisini (oqsoqolini) saylash huquqiga saylov kuni o‘n sakkiz yoshga to‘lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek shahardagi, shaharchadagi, qishloqdagi, ovuldagi mahalla hududida (bundan buyon matnda tegishli hudud deb yuritiladi) doimiy yashovchi fuqarolar ega bo‘ladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovida ishtirok etishi mumkin emas.

Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovida fuqarolarning ishtirok etish huquqlarini biron-bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 147-moddasi.

4-modda. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishning asosiy prinsiplari

Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish oshkoralik, muqobillik hamda teng saylov huquqi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

5-modda. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishda oshkoralik

Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish ochiq hamda oshkora amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi tashkil etilayotganda hamda o‘tkazilayotganda fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi) o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida fuqarolar voqif etiladi, fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar haqida, ovoz berish yakunlari to‘g‘risida xabardor qilinadi.

Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish, fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi) o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy, fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar to‘g‘risidagi axborot Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent

shahar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlarning rasmiy veb-saytlariga saylov o'tkazilishidan kamida besh kun oldin joylashtiriladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish jarayoni ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritib boriladi.

6-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovining muqobilik asosida o'tkazilishi

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ikki va undan ko'p nomzod ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi.

7-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazishda teng saylov huquqi

Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) saylashda fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar teng saylov huquqiga egadir.

Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) saylashda fuqarolar yig'inining (fuqarolar vakillari yig'ilishining) har bir ishtirokchisi bir ovozga ega bo'ladi.

8-modda. Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) saylash

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) fuqarolar yig'ini tomonidan, fuqarolar yig'inini chaqirish imkoni bo'lmagan taqdirda esa, fuqarolar vakillarining yig'ilishi tomonidan uch yilga saylanadi.

9-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishda davlat organlari fuqarolar yig'inlariga ko'maklashadi, zarur hollarda esa ularni binolar, transport va aloqa vositalari bilan ta'minlashi shart.

2-bob. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish

10-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish muddatlarini belgilash

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish muddatlari saylov boshlanishidan kamida ikki oy oldin O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik tadbirlarini o'tkazish muddatlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi tomonidan belgilanadi.

11-modda. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi respublika komissiyasi

Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi respublika komissiyasi (bundan buyon matnda Respublika komissiyasi deb yuritiladi) uning tarkibiga Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi vakillari albatta kiritilgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi tomonidan tuziladi.

Respublika komissiyasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari, davlat organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy va boshqa tashkilotlarning vakillari kiritilishi mumkin.

Respublika komissiyasining vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar komissiyalari (bundan buyon matnda komissiyalar deb yuritiladi) faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

komissiyalarning saylovni samarali o'tkazish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar bilan ta'minlanishini tashkil etish;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini o'tkazish masalalari yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etish;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish jarayonining ommaviy axborot vositalarida yoritilishini tashkil etish;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish;

saylov yakunlari to'g'risida tegishli komissiyalar tomonidan taqdim etilgan axborotni umumlashtirish va ko'rib chiqish, bu axborotni keng jamoatchilik e'tiboriga yetkazish.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashining ijro apparati Respublika komissiyasining ishchi organidir.

12-modda. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalarni tuzish

Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hududida tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar komissiyalari tuziladi.

Komissiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, tegishli xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashining qarori bilan tuziladi. Komissiyalar fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) navbatdagi saylovi e'lon qilinganidan keyin o'z faoliyatini tugatadi.

Komissiyalar tarkibiga, qoida tariqasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, tegishli xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashi deputatlari, fuqarolar yig'inlarining, davlat organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari kiritiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar komissiyaga a'zo shaxslar yoxud ularning yaqin qarindoshlari orasidan ko'rsatilgan taqdirda, ular komissiya tarkibidan chiqariladi.

Tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlarining ijro apparatlari komissiyalarning ishchi organlaridir.



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 30 sentyabrdagi 267-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi to'g'risida nizom»ning 6-bandi, Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 dekabrdagi 329-son qarori bilan tasdiqlangan «Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari to'g'risidagi namunaviy nizom»ning 6-bandi.

13-modda. Komissiyalarning vakolatlari

Komissiyalar o'z vakolatlari doirasida:

fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlaydi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlarining (bundan buyon matnda ishchi guruh deb yuritiladi) faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etadi;

hovlilar, uylar, ko'chalardan fuqarolarning vakillik normasini belgilaydi;

ishchi guruhlardan fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) lavozimiga nomzodlarga doir hujjatlarni keyinchalik tegishli tumanlar, shaharlar hokimlari bilan kelishish uchun qabul qilib oladi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga doir hujjatlarning namunalarini tasdiqlaydi, bundan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi tomonidan belgilanadigan saylov byulletenlarining namunalari mustasno;

ishchi guruhlarining fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborotini eshitadi;

tegishli hududda fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovi yakunlarini chiqaradi hamda Respublika komissiyasiga axborot taqdim etadi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqadi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarning arxivga yoki idoraviy arxivga topshirilishini ta'minlaydi.

14-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tuzish

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish uchun fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) qarori bilan ishchi guruh tuziladi. Fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) navbatdagi saylovi e'lon qilinganidan keyin ishchi guruh o'z faoliyatini tugatadi.

Ishchi guruh tarkibiga, qoida tariqasida, fuqarolar yig'inining, tegishli hududda joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlarining va boshqa tashkilotlarning vakillari, shuningdek tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining deputati kiritiladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli), uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini organlarining boshqa xodimlari, shuningdek fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarning, fuqarolar yig'ini organlari boshqa xodimlarining yaqin qarindoshlari ishchi guruh tarkibiga kiritilishi mumkin emas.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ishchi guruhga a'zo shaxslar yoxud ularning yaqin qarindoshlari orasidan ko'rsatilgan taqdirda, ular ishchi guruh tarkibidan chiqariladi.

15-modda. Ishchi guruhning vakolatlari

Ishchi guruh:

fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilaydi hamda uni o'tkazishdan kamida besh kun oldin bu haqda tegishli hududda yashovchi fuqarolarni xabardor qiladi;

hovlilar, uylar, ko'chalar aholisining fuqarolar vakillari saylovi bo'yicha umumiy yig'ilishlarini tashkil etadi va o'tkazadi;

hovlilar, uylar, ko'chalar aholisi umumiy yig'ilishining ishtirokchilarini ro'yxatga oladi hamda fuqarolarning saylangan vakillari haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda aholining umumiy yig'ilishi bayonnomasini tuzadi;

tegishli komissiyaga taqdim etish uchun fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar bo'yicha takliflarni tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda tayyorlaydi;

fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish masalalari yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib boradi;

fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) takroriy saylovi, shuningdek bo'shab qolgan o'rinlarga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi o'tkazilishini tashkil etadi;

fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqadi.

3-bob. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko'rsatish tartibi

16-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko'rsatish

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko'rsatish tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikri inobatga olingan holda ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Ishchi guruh fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarga doir hujjatlarni tayyorlaydi va tuman yoki shahar hokimi bilan kelishish uchun tegishli komissiyaga saylovdan kamida o'n kun oldin taqdim etadi. Hujjatlarga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarning o'z nomzodi ko'rsatilishiga yozma roziligi ilova qilinadi.

Tuman yoki shahar hokimi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga taqdim etilgan nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqadi va o'zining ushbu nomzodlar bo'yicha asoslantirilgan xulosalarini keyinchalik ishchi guruhlariga topshirish uchun tegishli komissiyalarga yuboradi.

Ishchi guruh tuman yoki shahar hokimining xulosasini olganidan keyin fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga kelishilgan nomzodlar haqidagi axborotni saylovdan kamida besh kun oldin fuqarolar yig'ini binosiga va guzarlarga osib qo'yadi.

17-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lishi, qoida tariqasida, oliy ma'lumotga ega bo'lishi, bevosita saylovga qadar kamida besh yil tegishli hududda doimiy yashayotgan bo'lishi, tashkilotchilik qobiliyatiga, davlat organlarida yoki nodavlat notijorat tashkilotlarida yoxud tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati sohasida ish tajribasiga, shuningdek hayotiy tajribaga va aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lishi kerak.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, og'ir yoxud o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar, shuningdek sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan, haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar, diniy tashkilotlarning professional xizmatchilari fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga saylanish uchun nomzod etib ko'rsatilishi mumkin emas.

4-bob. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish tartibi

18-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish uchun fuqarolar yig'inini (fuqarolar vakillarining yig'ilishini) chaqirish

Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi **Qonunida** belgilangan tartibda chaqiriladi va o'tkaziladi.

Fuqarolar vakillarining yig'ilishiga hovlilar, uylar, ko'chalardan fuqarolarning vakillari yuboriladi.

Tashkilotchilik qobiliyatiga, hayotiy tajribaga va aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lgan fuqarolar, qoida tariqasida, fuqarolarning vakillari bo'lishi mumkin.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar fuqarolar vakillari yoxud ularning yaqin qarindoshlari orasidan ko'rsatilgan taqdirda, ular fuqarolar vakillari tarkibidan chiqariladi.

Vakillik normasini tegishli komissiya belgilaydi. Bunda fuqarolar vakillarining soni saylovda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar umumiy sonining kamida o'n ikki foizini tashkil etishi kerak.

19-modda. Fuqarolar yig'inini (fuqarolar vakillarining yig'ilishini) o'tkazish tartibi

Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) ishchi guruhning rahbari raisligida o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) kun tartibiga, qoida tariqasida, quyidagi masalalar kiritiladi:

sanoq komissiyasini saylash;

fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) saylash.

Fuqarolar yig'inida (fuqarolar vakillarining yig'ilishida) fuqarolar yig'inining (fuqarolar vakillari yig'ilishining) ish reglamenti, shu jumladan fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarning ma'ruzalari, ularning muhokamasi, savollar va javoblar uchun vaqt belgilanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi bo'yicha ovoz berish natijalarini aniqlash uchun fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) tomonidan kamida uch kishidan iborat tarkibda sanoq komissiyasi saylanadi.

Fuqarolar yig'inida (fuqarolar vakillarining yig'ilishida) raislik qiluvchi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarni e'lon qiladi. Shundan so'ng fuqarolar yig'inida (fuqarolar

vakillarining yig'ilishida) raislik qiluvchi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarning har biriga so'z beradi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarning ma'ruzasi alifbo tartibida o'tkazilib, nomzodlar o'zining kelgusi faoliyati dasturini e'lon qiladi.

20-modda. Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) saylashda ovoz berish shakli

Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) saylash yashirin ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

21-modda. Ovoz berishni o'tkazish tartibi

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi bo'yicha ovoz berish o'tkazilayotganda fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) ishtirokchilariga saylov byulletenlari (bundan buyon matnda byulleten deb yuritiladi) sanoq komissiyasi tomonidan beriladi.

Byulletenga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarning familiyasi, ismi, otasining ismi alifbo tartibida kiritiladi.

Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) saylashda byulletenlarni berish bevosita ovoz berishdan oldin boshlanadi.

Byulleten ovoz beruvchi tomonidan yashirin ovoz berish kabinasida yoki xonasida to'ldiriladi. Ovoz beruvchi byulletenning o'ng tomonida o'zi yoqlab ovoz berayotgan fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodning familiyasi qarshisida joylashgan bo'sh katakka «+», «|» yoxud «x» belgisini qo'yadi.

Ovoz beruvchi to'ldirilgan byulletenni saylov qutisiga tashlaydi.

Saylov qutilari ovoz berish tugaganidan keyin sanoq komissiyasi tomonidan ochiladi.

Byulletenlarning namunalari va shakllari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi tomonidan belgilanadi.

22-modda. Ovozlarni sanab chiqish

Ovozlar sanoq komissiyasi tomonidan fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga har bir nomzod bo'yicha sanab chiqiladi.

23-modda. Sanoq komissiyasining bayonnomasi

Ovozlarni sanash natijalari bo'yicha sanoq komissiyasi tomonidan bayonnoma tuziladi va bayonnoma sanoq komissiyasining raisi hamda a'zolari tomonidan imzolanadi.

Sanoq komissiyasining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) ishtirokchilarining umumiy soni;

ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) ishtirokchilari soni;

ovoz berish o'tkazilganida byulletenlar olgan fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) ishtirokchilari soni;

fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga har bir nomzodni yoqlab berilgan ovozlar soni;

ovoz berish o'tkazilayotganda haqiqiy emas deb topilgan byulletenlar soni.

Sanoq komissiyasining bayonnomasi sanoq komissiyasining raisi tomonidan o'qib eshittiriladi va fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) tomonidan tasdiqlanadi.

24-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi yakunlarini chiqarish

Ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning yarmidan ko'prog'ining ovozini olgan nomzod fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga saylangan deb hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) saylov yakunlari bo'yicha qaror qabul qiladi, bu qaror fuqarolar yig'inida (fuqarolar vakillarining yig'ilishida) raislik qiluvchi tomonidan o'qib eshittiriladi.

Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) bayonnomasi ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi saylov yakunlarini umumlashtirish uchun tegishli tuman va shahar komissiyasiga taqdim etiladi.

Tegishli tuman va shahar komissiyalari fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovi yakunlariga doir umumlashtirilgan ma'lumotlarni yuqori turuvchi komissiyaga topshiradi.

25-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topish

Agar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovida fuqarolar yig'inida ishtirok etuvchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolarning yarmidan kamrog'i ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb topiladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi fuqarolar vakillarining yig'ilishlarida o'tkazilgan taqdirda, agar yig'ilishda hovlilar, uylar, ko'chalardan fuqarolar vakillarining uchdan ikki qismidan kamrog'i ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb topiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi davomida yoki ovozlarni sanab chiqishda yo'l qo'yilgan va ovoz berish yakunlariga ta'sir qilgan qoidabuzarliklar tufayli saylov sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

26-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovida takroriy ovoz berish

Agar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ikki nafardan ortiq nomzod ko'rsatilgan va ulardan birontasi ham saylanmagan bo'lsa, fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod bo'yicha takroriy ovoz berishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Takroriy ovoz berish ushbu Qonun talablariga rioya etilgan holda o'tkaziladi.

Takroriy ovoz berish chog'ida ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'proq olgan nomzod fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga saylangan hisoblanadi.

27-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovi

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovi quyidagi hollarda o'tkaziladi, agar: avvalgi saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa;

takroriy ovoz berish fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylanganligini aniqlash imkonini bermasa;

fuqarolar yig'inida (fuqarolar vakillarining yig'ilishida) fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ko'pi bilan ikki nafar nomzod ko'rsatilgan hamda ulardan birontasi ham saylanmagan bo'lsa.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovi ushbu Qonun talablariga rioya etilgan holda bir oylik muddatdan kechiktirmasdan o'tkaziladi.

28-modda. Bo'shab qolgan o'rinlarga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, tegishli fuqarolar yig'inlarida ushbu Qonunning talablariga rioya etilgan holda yangi saylov o'tkaziladi.

29-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi natijalari ustidan shikoyat qilish

Fuqarolar yig'inining (fuqarolar vakillari yig'ilishining) fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi natijalari bo'yicha qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

30-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi natijalari bo'yicha fuqarolar yig'ini organlarini shakllantirish

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi natijalari bo'yicha fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) bir oy ichida fuqarolar yig'ini kengashini shakllantiradi, fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) maslahatchilarini, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va taftish komissiyasini saylaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 22 apreldagi O'RQ—350-son «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» (yangi tahriri)gi Qonunining 9-moddasi.

31-modda. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining V¹ bobi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 146-moddasi.

32-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 aprelda qabul qilingan «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi 609-II-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 yil, № 5, 78-modda);

2) O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 22 aprelda qabul qilingan «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-351-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013 yil, № 4, 97-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 18 aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-476-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018 yil, № 4, 224-modda) **47-moddasi**.

33-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

34-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

35-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOEV

Toshkent sh.,
2018 yil 15 oktabr,
O'RQ-499-son

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.10.2018 y., 03/18/499/2050-son)